

SHARTNOMA 51

«02» yanvar 2022 yil

Qarshi shahri

O'z nizomiga asosan ish yurituvchi «Dunyo-M» aksiyadorlik jamiyati nomidan (keyingi o'rinlarda «Sotuvchi» deb ataladi) boshqaruv raisi **K.Akbarov** tomonidan va o'z nizomiga asosan ish yurituvchi Shurtan gaz kimyo majmuasi MChJ nomidan (keyingi o'rinda «Xaridor» deb ataladi) rahbari **SH.CH. Aslanov** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani qo'yidagilar to'g'risida tuzdik:

1.Shartnoma predmeti.

1.1 «Sotuvchi» o'zi ishlab chiqargan mahsulotni O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2020 yil 16 apreldagi 01-03/1-638-sonli yig'ilish bayoniga asosan «Xaridor» ning tasarrufiga berishni, «Xaridor» esa qarorga asosan mahsulotni bahosini oldindan to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Mahsulot to'g'risida ma'lumot:

Mahsulotning nomi va miqdori : aholiga ijtimoiy ta'minot uchun: Un 1-nav VMA

10 (o'n) tonna

Bir tonna mahsulotning bahosi: **2 485 000** so'm.

Ijtimoiy ta'minot uchun jami summa: Yigirma to'rt million sakkiz yuz ellik ming so'm

Mahsulotning nomi va miqdori: non va makaron ishlab chiqarish uchun: Un 1-nav VMA

Bir tonna mahsulot bahosi:

Non ishlab chiqarish uchun jami summa: 24850000 so'm

Jami shartnoma summasi: 24850000 so'm

1.3 Shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan mahsulot «Xaridor» ga shartnoma imzolanib, mahsulotning qiymatining **100 %** foiz puli to'langandan so'ng mahsulot beriladi.

1.4 «Xaridor» mahsulot qiymatini 10 (o'n) kun muddatdan kechiktirmay to'lashi shart.

2.To'lov shartlari.

2.1 «Xaridor» ushbu shartnoma bo'yicha to'lovni pul o'tqazish yo'li bilan so'mda amalga oshiradi.

3. Taraflarning majburiyatlari.

3.1 «Sotuvchi» ning majburiyatlari:

3.1.1 «Sotuvchi» Davlat texnik standarti ko'rsatmalariga to'g'ri keladigan mahsulotni berishga kafolat beradi.

3.2 «Xaridor» ning majburiyatlari:

3.2.1 Mahsulot bahosini ushbu shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va 10 (o'n) kun muddatda to'lovni to'lashi shart.

3.2.2 «Xaridor» mahsulotni avtotransportda olib ketish xarajatlarini o'z hisobidan amalga oshiradi. «Xaridor» mahsulotni temir yo'l transporti orqali tashib ketayotganda, temir yo'l transporti bilan bog'liq barcha rasmiylashtirish ishlari va xarajatlari o'z hisobidan to'laydi.

3.2.3«Xaridor» olinadigan mahsulotni qonunchilikda belgilangan tartibda iste'mol qiladi (belgilangan joyda sotadi, foydalanadi va h.k)

4.Tomonlarning javobgarligi.

4.1 Mahsulotlarni muddatidan kechiktirib berilgan, to'liq berilmagan hollarida «Sotuvchi» «Xaridor» ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatni bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi berilmagan mahsulot bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi kerak.

4.2 Jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish (legallashtirish) va terrorizmni moliyalashtirishning xalqaro hujjatlarida nazarda tutilgan korruptsiyaga va ushbu huquqbuzarlikka qarshi kurashish qonun hujjatlariga ko'ra davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xodimning pora olishi, tijoratda pora olish yoki pora berishda ishtirok etish kabi harakatlarni rad etish, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarinibajarish doirasida tomonlar amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etadilar, kafolatlashda o'zlari, shu jumladan xodimlar,afillangan shaxslar, benefitsiarlar va biznes sheriklar, pudratchilar yoki shartnomani bajarishda ishtirok etadigan agetlar ushbu qonunga zid ravishda harakat qilmasligini ta'minlaydilar.

4.3 Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid maqsadlarda ularga ta'sir o'tqazuvchi har qanday shaxslar, tomonlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali takliflar, va'dalar berish, tovlamachilik, so'rovlar, pul, boshqa qimmatbaho buyumlar, mol-mulk, mulk huquqi yoki boshqa oddiy yoki nomoddiy foydlarni olishda, asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa moddiy yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishishda rozilik berishdan voz kechadilar.

4.4 Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishni kafolatlaydilar. Tomonlar qonun buzilishga oid gumonlarning paydo bo'lishi yoki Shartnoma doirasida ular tomonidan jalb qilingan tomonlar, xodimlar, foyda oluvchilar, afillangan shaxslar yoki boshqa shaxslar tomonidan buzilish ehtimoli borligi to'g'risida(shu jumladan korporativ elektron pochtdan foydalangan holda) bir-birlarini yozma ravishda ochiq va darhol xabardor qilish majburiyatini oladilar.Shuningdek, agar tomonlardan biri asoslangan holda yoki shubha ostidagi boshqa tomon, uning xodimlari, benefitsiarlari,sheriklari yoki shartnomani bajarish ishtirok etadigan boshqa shaxslar tomonidan amaldagi qonunlarning va yoki ushbu shartnomaning korruptsiyaga qarshi qoidalari buzilgan bo'lsa, ushbu tomon unga yozma ravishda co'rov yuborishga haqlidir.Talabnoma kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida qonun buzilish faktini rad qiluvchi yoki tasdiqlovchi izohlar va ma'lumotlar hujjatlarni taqdim etish talabi bilan murojaat etish huquqiga ega.

4.5 Tomonlar, agar tomonlardan biri ushbu bob talablarini bajarmagan bo'lsa, shuningdek boshqa tomon buzilish sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi yoki sodir bo'lmasligi to'g'risida tasdiq olmagan bo'lsa va tomon korruptsiya xavfni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirgan bo'lsa boshqa tomon ushbu bitimni bir tomonlama bekor qilish, shuningdek uning bajarilishini to'xtatib turish huquqiga ega.

4.6 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tomon tomonidan yetqazilgan zararni qoplash ushbu shartnomaning tegishli moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi,shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon shartnomani belgilangan bir tomonlama bekor qilish natijasida yetqazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.

4.7 Agar kelishuv bo'yicha tomon kompaniya xodimlarining xatti-harakatlariga, ushbu shartnomaga va yoki amaldagi qonunchilikka, shu jumladan korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, tomonlar bu haqda korruptsiyaga qarshi qoidalarga zid bo'lganligi to'g'risida qo'yidagi aloqakanallaridan biri tomonidan xabar berishi shart.

5. Nizolarning hal qilish tartibi.

5.1 Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha paydo bo'ladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi

5.2 Agar kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmasi, Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal etiladi.

6. Shartnomaga qo'shimcha o'zgartirish tartibi.

6.1 Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgarishlar, agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilib va har ikki tomon imzolanganagina haqiqiy kuchda bo'ladi.

6.2 Shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan mahsulot bahosi hukumat qarori asosida o'zgargan taqdirda, hisob-kitob o'zgargan narxlar asosida olib boriladi.

7. Boshqa shartlar.

7.1 Ushbu shartnoma taraflar uchun bir xil kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuziladi.

7.2 Ushbu shartnoma «31» yanvar 2022 yilgacha haqiqiy kuchda bo'ladi.

«Sotuvchi»

«Dunyo-M» aktsiyadorlik jamiyati

Shayxaliqo'rg'oni, Oltinboshq ko'cha №1

X/R 23208000900206194100 X/R

MFO:00151, ATB Agrobank Qarshi shahar

MFO: 00151, INN 201007054



OKONX: 19211-ATB Agrobank Qarshi shahar

Rais

K.Akbarov

«Xaridor»

Shartlan qoz kimyo majmuasi
Buzor Zumani

X/r 20210000104039001001

MFO 00150 INN 203195074

Bank Qarshi TIF

sh. ch. Asbanov



Rahbar

Sh. Marmorov

B. Bozorov

HUQUSHUNOS XULOSASI

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 354-357-384-sonli moddalari va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni talablariga mos keladi.

Taraflarning javobgarlik me'yorlari va nizolari hal qilish tartibi harakatidagi qonun hujjatlari talablariga mos keladi, ushbu shartnomani ijroga qaratish mumkin.

Bosh huquqshunos: _____ D. Eshonqulov

« 07 » yanvar 2022 y.

